

## KUTUBXONADA MUTOLAA VA KUTUBXONACHI MADANIYATI

Murotova Yulduz Faxriddin qizi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Kutubxona-axborot faoliyati  
fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada kutubxonada mutolaa qilishning o'ziga xos jihatlari, mutolaa madaniyatining mohiyati, kutubxonachi madaniyati haqidagi tushunchalar muhokama etiladi.

**Kalit so'zlar:** Kutubxona, mutolaa, kutubxonachi, madaniyat, tahlil.

**Kirish:** Har qanday tarixiy davrda jamiyatning ma'naviy-madaniy, intellektual salohiyatini oshirish uchun bosh mezon vazifasini o'tovchi usullar shakllangan. Bilim olishning eng asosiy usuli bo'lgan mutolaa jarayonlarini takomillashtirish jamiyatning umumiy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqichlarga ko'tarishda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Respublikadagi uzlusiz ta'lif tizimini shakllantirishda, ta'lif-tarbiya asoslarini yaratishda ma'rifiy tizimda katta imkoniyatlarga ega bo'lgan kitobxonlik va mutolaa omillarining, xususan axborot kutubxona muassasalarning bolalar kitobxonligini shakllantirishdagi o'rni, axborot olish madaniyatini tarbiyalashdagi imkoniyatlarini tahlil qilish, komil shaxsni tarkib toptirishdagi o'rni va roli masalalarini tadqiq etish, mazkur jarayonlarni takomillashtirishga doir yondashuvlar, amaliy chora- tadbirlar tahlili bugungi kunda dolzarb juda katta ham ilmiy-nazariy, ham amaliy ahamiyat kasb etadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Professor E.Y.Yo'idoshev bu tushunchaga shunday ta'rif beradi: «O'qish madaniyati – juda keng qamrovli tushuncha bo'lib, kitobga qiziqish va uni sevish, adabiyot bilan kengroq tanishishni, kitob va u bilan ishlash haqidagi maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, kitobdan to'la ravishda foydalanishga yordam beruvchi ko'nikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi». Bugungi kunda «o'qish madaniyati» [7], «kitobxonlik madaniyati», «mutolaa madaniyati» kabi atamalar bilan qo'llanilib kelayotgan ijtimoiy hodisa, axborot olish madaniyatining tarkibiy qismidir. «Mutolaa» so'zi arabcha «o'qish» degan ma'noga ega bo'lsa-da, bugungi kunda u kitob o'qishdan ko'ra kengroq tushunchani anglatmoqda. A. Umarov fikricha: «Mutolaa madaniyati ijtimoiy guruqlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulq-atvor va faoliyatlarini mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalar va boshqa atributlardir [6]. Ayni chog'da mutolaa madaniyatini ta'lif tizimlari orqali maxsus shakllantiradigan, ixtisoslashganma'lumotni inson hayoti davomida turli manbaalar – kitoblar (badiiy, ilmiy, o'quv, qomusiy), ommaviy axborot vositalari (gazeta,

## "INTEGRATION, EVOLUTION, MODERNIZATION: WAYS OF DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION"

jurnal, televidenie, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, sub'ekt bilan bevosita muloqotga kirishuvchi shaxslar (oila a'zolari,...) orqali ega bo'linadigan turli yo'nalish va shakldagi umumiylar ma'lumotdan farqlash lozim bo'ladi». Bizning fikrimizcha, bu jarayonni aynan kichik yoshdagi maktab o'quvchilari doirasida tadqiq etganda «o'qish» terminini ishlatish maqsadga muvofiqdir. Chunki, o'quv-biluv jarayoni o'qish, o'rganish, rivojlanish tizimida amal qiladi.

Professor V.F.Asmus o'zining «Kitobxonlik - mehnat va ijod» nomli maqolasida esa kitobxonlikka shunday ta'rif beradi: «Mutolaa vaqtida asar bir ko'zadan ikkinchi ko'zaga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyilib qolmay, balki ijodkor kitobxon tomonidan qayta idrok etiladi». «Taraqqiy etgan horijiy mamlakatlarda,- deb yozadi H.To'xtaboev,- kitobxonlik fan darajasiga ko'tarilgan. Kitobxonlik kitobni targ'ib qilishgina emas, balki kitob o'qishni, o'qiladigan kitobni tanlay olishni, mag'zini chaqishni, ya'ni kitob yordamida o'zini anglashni o'rgatish hamdir».

O'qish madaniyatining tizim yasovchi xususiyati – mutolaa darajasi ham mutolaa texnologiyasi bilan bog'liq bo'lib, o'quvchi tomonidan ma'lumotni anglash darajasini bildiradi. Buning to'rtta bosqichi bo'lib, bular quyidagilardir:

Birinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya qilinayotgan voqeanning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi.

Ikkinci darajada o'quvchi matnning mazmunini hamda syujetni anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat qila olish qobiliyatini namoyon qiladi.

Uchinchi darajada o'quvchi matnga va unda hikoya qilinayotgan voqeaga o'zining mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi hamda asar epizodlarini tahlil qila oladi.

To'rtinchi darajada o'quvchi matning mazmunini to'la anglab, voqeani mustaqil tahlil qila oladi. Qahramonlarning xatti-harakatlarini voqealar mantig'i asosida tahlil qilib, sintetik, ya'ni umumlashma xulosalar chiqara oladi.

Mutolaa intensivligining yuqori bo'lishini ta'minlovchi omillar sifatida:

- 1) mutolaaga va ma'lumot olishga qiziqish darajasining yuqoriligi.
- 2) mutolaan manbalarining qiziqarli, mazmunan boy bo'lishi.
- 3) mutolaan manbalariga oson ega bo'lishni ta'minlash.
- 4) bozor iqtisodi talablariga mos ravishda turli adabiyotlar va boshqa mutolaa manbaalari reklamasini keng yo'lga qo'yish kerak .

### XULOSA VA MUNOZARA

Kitob, kutubxona va kitobxon har qanday jamiyat rivojini ta'minlovchi muhim bo'g'lnlardir. Shu sababli ham kitobning ijtimoiy rivojlanishdagi o'rni, kutubxonaning ilmiy-ma'rifiy ahamiyati to'g'risida ko'p fikrlar bildirilgan. Buni o'tmish allomalarimizdan tortib, zamondosh olimlarimiz tomonidan aytilgan

mulohazalar ham tasdiqlab turadi. Bunday qarashlar hayot tajribasidan kelib chiqib aytilgan hamda o‘z asosiga ega bo‘lgan dalillardir.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Yuldasheva S. Kitob mutolaasini shakillantirishda kutubxonachilik faoliyati //Oriental Art and Culture. – 2019. – №. IV (1).
2. Karimova H.Q. Yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirish jarayonida axborot- kutubxona muassasalari holati: muammo va yechimlar. // «Axborot-kutubxona resurslaridan fan, ta’lim, madaniyat va biznes sohalarida foydalanish» mavzusida o’tkazilgan konferensiya materiallari. – T., 2010. –22-b.
3. Spravochnik bibliotekarya. – Sankt-Peterburg, “Professiya”, 2010. –b. 187.
4. Yastrebova Ye.M. Strategicheskiy menedjment i strategicheskoe planirovanie dlya bibliotek: istoricheskiy ekskurs, seli i sušnost. Leksiya. – M.: MGUK, 2018. –b. 47
5. Yo’ldoshev E. Kutubxonada bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalash.- T.: Tosh. Dav.univ., 1986.- b. 5
6. Umarov A. Mutolaa madaniyati: shaxs, jamiyat, taraqqiyot.-T.: Fan, 2004.- b.33
7. Yo’ldoshev E. Kutubxona va yosh kitobxon.- T.: O’zbekiston, 2003.- 200 b.